

MADANIYAT XODIMINING INNOVATSION FAOLIYATI

Esenbaev Miyirbek Qdirbay uli

Esenbaeva Miyasar Qdirbay qizi

Tajimuratova Shaxnoza Saqinbaevana

(Ilimiy rahbar)

Berdaq nomidagi Qaraqalpaq Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11274146>

Annotatsiya. Bu maqolada innovatsiya tushunchasiva innovatsion faoliyatning muhim komponentlari hamda madaniy xizmat kórsatish jarayonida tarbiyaning innovatsion texnologiyalarini qo'llash haqida sóz etilgan.

Kalit sózlar: ijtimoiy-madaniy faoliyat, "innovatsion ta'lim", innovatsiya, innovatsiyaning birinchi tipi, innovatsiyaning ikkinchi tipi, innovatsiyon jarayonlar.

INNOVATIVE ACTIVITY OF A CULTURAL WORKER

Abstract. This article describes the concept of innovation, important components of innovative activity, and the use of innovative technologies of education in the process of cultural services.

Key words: socio-cultural activity, "innovative education", innovation, the first type of innovation, the second type of innovation, innovation processes.

ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РАБОТНИКА КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье рассмотрено понятие инновации, важные составляющие инновационной деятельности, а также использование инновационных технологий образования в процессе оказания культурных услуг.

Ключевые слова: социокультурная деятельность, «инновационное образование», инновации, первый тип инноваций, второй тип инноваций, инновационные процессы.

Insoniyat yaxshilik, ezungulik dunyosini barpo etish uchun yaratilgan bo'lsa, tarbiya uni shakllantirish, takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos vositadir. Inson hayoti va ko'p qirrali faoliyati, hatti-harakati, xulq-atvori, fe'lini oqilona tartibga solish orqali ham ta'lim tizimi takomillashib borgan. Tarbiya ijtimoiy jarayon sifatida asta-sekin, bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan u haqidagi oddiy, sodda qarashlar, fikrlar muayyan tizimga, ya'ni tarbiya haqidagi nazariya, fanga ham ehtiyoj tug'dirdi. Demak, tarbiya haqidagi qarashlar, bilimlar tizimi, tarbiya haqidagi fan ham insoniyat tabiiy tarixiy amaliyotining mahsulidir.

Tarbiya jarayoni tarbiyachi (subyekt) va tarbiyalanuvchi (obyekt)ning o'zaro ishtirokida amalga oshadi. Ota-onal farzandlariga, o'qituvchi o'quvchilariga, mehnat va o'quv jamoalarda rahbar o'z a'zolari, xodimlariga u yoki bu darajada tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi. Albatta, ota-onaning farzandlariga, o'qituvchining o'quvchilariga beradigan tarbiyasi yetakchi va belgilovchi rol o'ynaydi. Tarbiyaning rivojlanish tarixi insoniyat mavjudligi va rivojlanish tarixining ajralmas tarkibiy qismidir. Bu tabiiy-tarixiy jarayon, o'z navbatida tarbiya shakllari va usullarini o'zida mujassamlashtirgan tarbiya tizimi, tarbiya shakl-tamoyillari, davlatda tarbiya siyosati, ilm-fanda tarbiya nazariyasiga ham ta'sir qilib boradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat innovatsiyani kelajakda rivojlantirish strategiyasida “innovatsion insonni” yaratish, ya’ni ishlashidan qat’iy nazar u innovatsiya va yangi bilimlarga moyil bo’lishi kerak. Bugungi kunda zamonaviy innovatsion yaroqlilik yuzaga kelmoqda.

Hozirda boshqa faoliyat sohalari, jumladan, ishlab chiqarish rivojlanishining innovatsion yo’liga o’tgach, ta’lim sohasi ularga faqat yetakchilarni tayyorlash funksiyasini bajardi. Lekin aslida esa boshqacha ko’rinish ko’zga tashlanadi. Ilgari jamiyat uchun uncha ko’p bo’lmagan va mustaqil shakllangan innovatorlar yetarli edi.

Hozirgi davr taraqqiyoti yangi yo’nalish – innovatsion yondashuvni maydonga olib chiqdi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o’zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o’rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o’zaro ta’siri mikrosathi. Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g’oya yoritiladi. Ikkinci yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o’zaro ta’siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o’rnini ikkinchisi egallashdir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyiligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o’lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g’oya tug‘ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya’ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo’llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o’zining yangiligini yo’qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo’ladi.
6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo’llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

Innovatsiyada “yangi” tushunchasi markaziy o’rin tutadi. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyat xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg‘otadi.

Xususiy yangilik joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko’zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma’lum unsurlarning yig‘indisi shartli yangilik hisoblanadi. Mahalliy yangilik konkret obyektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi. Subyektiv yangilik ma’lum obyekt uchun obyektning o’zi yangi bo’lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo’nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- innovatsiya muhitining ayovsiz bemanomlik qonuni;

- nihoyat amalga oshish qonuni;
- qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;
- innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni.

Innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi. Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

1. Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o‘tadi, ya’ni innovatsion jarayonda unga bo‘lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo‘llariga ongli munosabat bo‘lmaydi.

2. Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko‘p sub’ektli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
- individual-ijodiy (shaxslarning o‘zaro munosabatlari) yondashuv.

Hozirgi jamiyat, madaniyat taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining innovatsiya faoliyatiga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ma’naviy tizimi, metodologiya va texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining innovatsiya faoliyati yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va foydalanishdan iborat bo‘ladi;

- faoliyat mazmunini insonparvarlashtirish doimo yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

- yangilikni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimining munosabati xarakteri o‘zgarishi.

Madaniyat xodimining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samardorligini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me’yorlarga - yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlari kiradi Yangilik ijtimoiy me’yori sifatida o‘zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi.

V.A.Slastenin o‘tkazgan tadqiqotlar innovatsion faoliyatda kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo‘ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;

- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o‘zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;

- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishiqlik darajasini aniqlash;

- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;

- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

Madaniyat xodimining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

Madaniyat xodimini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- yangicha harakat qila olishga o‘rgatish.

Madaniyat xodimining innovatsion faoliyatining eng muhim komponentlaridan biri yuksak professionalizm – akmeologiya, yunoncha eng oliv nuqta, eng gullagan davr, yuksak professionalizm ma’nolarini beradi. Kasbiy intellektual yetuklik va mahoratni bildiradi. Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- iste’dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste’dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o‘z xatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi.

Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o‘zining o‘sish va takomillashish jarayoni;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

Madaniyat xodimining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g‘ayri odatiylikka va yangilikka bo‘lgan histuyg‘u, professionalizm, bilishga bo‘lgan chanqoqlik.

Ijtimoiy tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismi sifatida alohida omillar birligi deb ta’kidlagan holda ularni ko‘pincha, tarbiya jarayonining texnologiyasi deb ko‘rsatadilar. Bunday yondashishda ijtimoiy tizim ko‘zlangan maqsadga erishishni ta’minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Ana shu belgisi bo‘yicha ijtimoiy tizimning tarkibiy qismlar ixtiyoriy «to‘plamidan» ajratib olish osondir. Texnologiya - bu qat’iy tashkiliy mantiqqa bo‘ysunuvchi imkoniyatlarini belgilovchi tizimning ichki sifatidir.

REFERENCES

1. Qorabayev U.X. O‘zbek xalq bayramlari.-Toshkent: O‘qituvchi, 2002
2. Muxtorov A. Shaxs tarbiyasida milliy g‘oya, ehtiyoj va man’aatlar uyg‘unligi.-Toshkent: Yangi asr avlod, 2003

3. Imomnazarov M. Milliy ma'nnaviyatimiz asoslari.-Toshkent:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
4. Abatbaeva U. V. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QUV JARAYONIGA MOSLASHISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA JARAYONLARI. – 2024.
5. Uzakbaeva V. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS AND PROCESSES OF ADAPTATION TO THE EDUCATIONAL PROCESS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 988-990.
6. Uzakbaeva V. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QUV MOTIVIGA O'QUV FAOLIYATINING TA'SIRI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 1.
7. Tajimuratova S. BASQARIW DÁREJESIN ILIMIY DÁREJEDE RAWAJLANDIRIW //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 24-27.
8. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 509-511.
9. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 9. – C. 386-392.
10. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
11. Shaxnoza T., Rayxan K. JOYBARLARDIŃ SHÓLKEMLESTIRIWSHI STRUKTURALARI //NEW RENASSAINCE CONFERENCE. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 124-128.